

TILSHUNOSLIKDA “FITONIM” TUSHUNCHASI TALQINI

Abduraimova Dinara Bahodir qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,
Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ixtisosligi 2-bosqich magistranti.

Abdullayeva Nilufar Ramazonovna

Termiz davlat universiteti, Phd. dotsent.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18552093>

Annotatsiya. Ushbu maqola tilshunoslikda “fitonim” tushunchasi talqini o‘rganilishiga bag‘ishlanadi. Fitonim tushunchasiga ta’rif berish muammosi tilshunoslarning bir necha avlodlari e’tiborida bo‘lgan.

Fitonimlar ko‘plab tadqiqotchilarning e’tiborini jalb qilishda davom etmoqda va hozirda ularni o‘rganish keng tarqalgan. Shuningdek ushbu maqolada shu muammo ustida ish olib borgan o‘zbek olimlari va olimalari borasida ham so‘z olib borilgan.

Kalit so‘zlar: fitonim, semantik, maqollar, tadqiqot, tilshunos, terminlar, paremiologiya.

INTERPRETATION OF THE CONCEPT “PHYTONYM” IN LINGUISTICS

Abstract. This article is devoted to the study of the interpretation of the concept “phytonym” in linguistics. The issue of the interpretation of the concept phytonym has been the focus of linguists’ attention for several generations.

Phytonyms continue to attract the interest of many researchers, and at present their study is widespread. The article also examines the works of Uzbek scholars and researchers who have conducted studies on this issue.

Key words: semantics, articles, research, phytonym, linguistics, terms, paremiology.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ “ФИТОНИМ” В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. Данная статья посвящена изучению интерпретации понятия «фитоним» в лингвистике. Проблема определения термина «фитоним» на протяжении нескольких поколений находилась в центре внимания лингвистов.

Фитонимы продолжают привлекать внимание многих исследователей, и в настоящее время их изучение широко распространено. В данной статье также рассматриваются исследования, проведённые узбекскими учёными и исследовательницами по данной проблеме.

Ключевые слова: фитоним, семантика, статьи, исследование, лингвистика, термины.

Fitonimika tarixiga oid dolzarb muammolardan biri bu lug‘at tadqiqoti bo‘lib , ya’ni “fitonim” atamasining ta’rifi hisoblanadi. Chunki ushbu atama yuzasidan umumiy qabul qilingan deyarli hech narsa yo‘q, tilshunoslikda esa keng qo‘llanilishiga qaramay, ushbu atamaning turlicha talqini mavjud.

Fitonimlar o‘zi botanika sohasiga oid termin hisoblanadi va o‘simliklarni ilmiy nomlashda foydalaniladi. Tilshunos olimlarning o‘simlik dunyosiga alohida e’tibor qaratishlariga sabab shundaki, o‘simliklar inson hayotida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi.

Fitonimlardan foydalanish mifologik, diniy, va adabiy an‘analarni davom ettiradi.

Fitomorfizm esa fikrlashning dastlabki shakli bilan bog'liq bo'lib, bu shakldan kelib chiqqan tushunchalar tilda o'tkaziladi.

Fitonimlar ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini jalb qilishda davom etmoqda va hozirda ham ularni o'rganish keng tarqalgan.

Rus tilshunosi Viktor Vinogradov ham fitonimlarni so'z va uning tasavvur qilinadigan obrazini birlashtiruvchi til elementi deb ta'riflagan. U, fitonimlarning yangi ma'no yaratishda va tushuncha tizimlarini shakllantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlagan.

Tabiiyki har birimizda "Fitonim so'zi o'zi nima?", degan savol tug'ilishi mumkin. "Fitonim" so'zi yunoncha "phyton" (fitov)- "o'simlik" va "onyma" (ovoma) - "nom" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, uning ma'nosi "o'simlik nomi" deganidir.

Bu so'z asosan, botanika nomlari va tilshunos kontekslarida ishlatiladi. Fitonim atamasi o'simliklarning ilmiy nomlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Ammo tilshunoslikda bu atama metaforik ma'nolarda, ya'ni ma'no o'zgarishlari va semantic shakllantirishlarda ham keng qo'llaniladi.

Fitonimlar – o'simliklarga qo'yilgan nomlari bo'lsa, Fitonimiya- o'simlik nomlarining majmui, Fitonimika esa fitonimlarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limidir. Shu bilan bir qatorda, fitonimlardan foydalanish mifologik, diniy va adabiy an'analarni davom ettiradi.

Fitonimlar ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini jalb qilishda davom etmoqda va hozirda ularni o'rganish keng tarqalgan.

Bugungi kunda ham yurtimizda fitonimlarga bo'lgan qiziqish kattadir. Shifobaxsh o'simliklar bilan nafaqat boiloglar va zoologlar, tabobat ilmi sohiblari, balki tilshunos olimlar ham qiziqib, turli risola-yu darsliklar yozishgan.

Shu jumladan, D.Yormatovanning "O'simlikshunoslik", H.Yo'ldoshevning "O'simlik kasalliklari" va bu bilan bir qatorda, ko'plab lug'atlar ham yozilgan.